O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLARGA VASIYLIK VA HOMIYLIK BELGILASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Nasiriddinov Yigitali Borataliyevich
Fuqarolik va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: uzchords@gmail.com,
+998993166107

Nabijonova Dilafruz Abdujalil qizi
Namangan davlat universiteti
Yuridik fakulteti talabasi
nabijonovadilafruz7442@gmail.com,
+998996467442

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik tizimini institutsional transformatsiya qilish, xususan, vakolatlarning tuman (shahar) hokimliklaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga o‘tkazilishi jarayonlari huquqiy tahlil qilingan. Maqolada vasiylik va homiylikni belgilashning huquqiy asoslari, nomzodlarga qo‘yiladigan ijobiy va salbiy mezonlar, shuningdek, protsessual bosqichlar o‘rganilgan. Tadqiqot yakunida bolani muqobil joylashtirish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: vasiylik va homiylik, “Inson” markazlari, institutsional islohot, muqobil joylashtirish, nomzodlarni tanlash, taqiqlar tizimi, dastlabki vasiylik.

Abstract.
This article provides a legal analysis of the institutional transformation of the guardianship and custodianship system in the Republic of Uzbekistan, particularly the transfer of relevant powers from district (city) administrations to the National Agency for Social Protection under the President of the Republic of Uzbekistan. The study examines the legal framework governing the establishment of guardianship and custodianship, the positive and negative eligibility criteria applicable to prospective guardians and custodians, as well as the procedural stages of their appointment. Based on the findings, conclusions and recommendations are proposed to further improve the alternative child care and placement system.

Keywords: guardianship and custodianship, “Inson” Social Service Centers, institutional reform, alternative child care, selection of candidates, system of legal restrictions, temporary guardianship.

Аннотация.
В данной статье проведён правовой анализ институциональной трансформации системы опеки и попечительства в Республике Узбекистан, в частности процесса передачи соответствующих полномочий от районных (городских) хокимиятов Национальному агентству социальной защиты при Президенте Республики Узбекистан. Исследованы правовые основы установления опеки и попечительства, положительные и отрицательные критерии, предъявляемые к кандидатам в опекуны и попечители, а также процессуальные этапы их назначения. По результатам исследования сформулированы выводы и предложения, направленные на дальнейшее совершенствование системы альтернативного устройства детей.

Ключевые слова: опека и попечительство, центры социальных услуг “Инсон”, институциональная реформа, альтернативное устройство детей, отбор кандидатов, система правовых ограничений, временная опека.

KIRISH

Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama kafolatlash har bir demokratik davlat ijtimoiy siyosatining fundamental asoslaridan biri hisoblanadi. Ota-

ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni oilaviy muhitga joylashtirish, ularning jismoniy, intellektual va ma’naviy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda vasiylik va homiylik instituti asosiy huquqiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini isloh qilish, sohadagi korrupsion omillarni bartaraf etish hamda ixtisoslashgan yagona vertikal boshqaruvni joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli institutsional islohotlar amalga oshirildi. Tizimdagi tarqoqlik va funksional takrorlanishlarga barham berish maqsadida, tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi komissiyalar tugatilib, vakolatlar ixtisoslashgan tuzilmaga o‘tkazildi. Mazkur tadqiqotning maqsadi — yangilangan qonunchilik sharoitida voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik belgilashning huquqiy asoslari, nomzodlarni tanlash mexanizmlari hamda amaliy protsessual bosqichlarni tizimli tahlil qilishdan iborat.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy hamda rasmiy-yuridik metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning normativ-huquqiy bazasini O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonuni , O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentyabrdagi 269-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 27-dekabrdagi 893-sonli qarori tashkil etdi. Shuningdek, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatiga doir normativ ko‘rsatkichlar hamda ma’muriy reglamentlar o‘rganildi.

NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik tizimini isloh qilish hamda sohadagi vakolatlarni optimallashtirish maqsadida, 2025-yil 1-fevraldan boshlab tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar masalalari bo‘yicha vasiylik va homiylik komissiyalari faoliyati rasman tugatildi. Mazkur o‘zgarishga muvofiq, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan vasiylik va homiylikni belgilash, rasmiylashtirish hamda nazorat qilish funksiyalari to‘liq vakolatli organ — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman (shahar)lardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari zimmasiga yuklatildi.

Vakolatli organ Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni muqobil joylashtirish shakllariga olish istagini bildirgan fuqarolarni tanlash, hisobini yuritish hamda muqobil joylashtirish shakllariga berilgan bolalarni kuzatish va monitoring qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq quyidagi tartibda vakolatli organ vasiy yoki homiy bo‘lish istagini bildirgan shaxslarning turmush sharoitlarini tekshiruvdan o‘tkazadi va bu haqda dalolatnoma tuzadi hamda vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkinligi to‘g‘risida xulosa tayyorlaydi.

Bolani oilaga muqobil joylashtirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan aholi o‘rtasida bolani oilaga joylashtirishning ustuvorligi, shuningdek nomzod vasiy va homiylarni izlash bo‘yicha muntazam ravishda targ‘ibot-tashviqot ishlari olib boriladi. Shu bilan birga, murojaat qilgan fuqarolarga bolalarni oilaga qabul qilish shakllari, shartlari va tartibi yuzasidan batafsil ma’lumotlar beriladi.

Keyingi bosqichda bolani muqobil joylashtirish shakllariga qabul qilish istagini bildirgan shaxslar o‘z yashash joyidagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga bevosita murojaat qiladi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali bolani oilaga tarbiyaga olish uchun nomzod sifatida hisobga qo‘yish to‘g‘risida ariza taqdim etadi. Mazkur murojaat fuqaroning o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Ariza qabul qilingandan so‘ng “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi o‘n ish kuni ichida nomzod tomonidan taqdim etilgan murojaat va hujjatlarni o‘rganadi. Zarur bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlar “Elektron hukumat” idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali olinadi. Shuningdek, nomzodning yashash, turmush va moddiy ta’minot sharoitlari o‘rganilib, bu haqda dalolatnoma rasmiylashtiriladi. O‘rganish yakunlariga ko‘ra uch ish kuni ichida nomzodning vasiy yoki homiy bo‘lishi mumkinligi haqida ijobiy qaror yoki bunga to‘sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo‘lsa, salbiy xulosa qabul qilinadi.

Salbiy qaror qabul qilingan taqdirda esa, rad etish to‘g‘risidagi qaror ikki ish kuni ichida ariza beruvchiga taqdim etiladi. Nomzodlarni baholash tizimida qat’iy filtrlash mexanizmi joriy etilgan. Xususan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, ruhiy-asab yoki narkologiya dispanserlarida ro‘yxatda turuvchi shaxslar, shuningdek, hayotga, sog‘liqqa, jinsiy erkinlikka va jamoat xavfsizligiga qarshi og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ilgari hukm qilingan fuqarolarning bolalarni tarbiyaga olishi qonunan qat’iyan taqiqlanadi.

MUHOKAMA

Yangi institutsional tizimning joriy etilishi vasiylik va homiylik sohasidagi byurokratik to‘siqlarni sezilarli darajada kamaytirdi va raqamlashtirish darajasini oshirdi. Ilgari hokimiyat organlari orqali haftalab yoki oylab davom etadigan qaror qabul qilish jarayoni bugungi kunda “Inson” markazlari va “Elektron hukumat” platformasi integratsiyasi tufayli tez o‘rganilib, ijobiy xulosadan so‘ng qisqa muddatlarda rasmiylashtirilmoqda.

Qonunchilikda vasiylikning maxsus shakllari — dastlabki (vaqtinchalik) vasiylik va ota-onaning uzoq muddatga (3 oydan ortiq) chet elga ketishi holatlaridagi vasiylik mexanizmlari mukammal huquqiy kafolatlar bilan ta’minlangan. Dastlabki vasiylik 1 oy muddatga tezkor tayinlanib, bolaning mol-mulkini tasarruf etish huquqisiz faqat uning shaxsiy himoyasini ta’minlasa, ota-ona chetga ketganda 1 oy oldin ariza berish majburiyati bolaning qarovsiz qolishini oldini oladi.

Biroq, tizimda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Nomzodning uyidagi turar joy sanitariya holati va oila a’zolarining roziligi salbiy xulosaga asos bo‘la oladi, lekin amaliyotda nomzod bilan birga yashovchi boshqa shaxslarning sotsial-psixologik portreti va yashirin xavf omillarini chuqurroq baholash metodologiyasini yanada rivojlantirish zarur. Shuningdek, 10 yoshga to‘lgan bolaning fikri inobatga olinishi majburiyligi bolalar huquqlarining muhim kafolati bo‘lsa-da, kichik yoshdagi bolalarning xohish-irodasini psixologik verifikatsiya qilish tizimini huquqiy tartibga solish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlarning Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufiga o‘tkazilishi bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Yangi protsessual bosqichlar (*case management*) va elektron xizmatlar tizimi bolani muqobil joylashtirish jarayonini shaffof va tezkor qildi. Qonunchilikdagi qat’iy taqiqlar tizimi esa bolani nosog‘lom ijtimoiy guruhlar ta’siridan asrashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun professional vasiylik modellarini moddiy qonunchilik darajasida yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1998-y. (Amaldagi tahriri).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 2-yanvar, O‘RQ-364-son // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish hamda ijro etilishining samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023-yil 1-iyun, PF-82-son // Lex.uz qonunchilik bazasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi Qarori, 22.09.2014-yildagi 269-son // O‘zbekiston Respublikasi QT.
5. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2024-yil 27-dekabr, 893-son (1-ilova: O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan vasiylik va homiylik organi to‘g‘risidagi nizom) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.